TARJIMA JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR

Adambayeva Sevara Sa'dulla qizi
Nukus Davlat Pedagogika Instituti
Chet tillari fakulteti ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
adambayevasevara@gmail.com
Sotvoldiyeva Durdonabonu Shavkatjon qizi
Farg'ona davlat universiteti
Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati yo'nalish talabasi
dsotvoldiyeva46@gamil.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7725836

Annotatsiya: Mazkur maqola ingliz tilidan o'zbek tiliga frazeologizmlar, maqol va matallar tarjimasi va ularning mohiyatiga lingvistik nuqtai nazardan kitobxonning uni anglashi uchun ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda tahlil qilingan. Tarjima jarayonida frazeologizmlar, maqol va matallarda uchraydigan muammolarni va ularga yechim sifatida turli xil misollar orqali tasniflab beramiz.

Kalit so'zlar: frazeologizmlar, maqol, matallar, lingvistik, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar.

PROBLEMS THAT ARISE DURING THE TRANSLATION PROCESS

Abstract: This article analyzes the translation of phraseologisms, proverbs and sayings from English to Uzbek and factors affecting their meaning from a linguistic point of view for the reader's understanding. In the process of translation, we classify the problems encountered in phraseologisms, proverbs and proverbs and their solutions through various examples. [1]

Keywords: phraseologisms, proverbs, saying, problems arising in the translation process, linguistic

ПРОБЛЕМЫ, ВОЗНИКАЮЩИЕ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА

Аннотация: В данной статье анализируется перевод фразеологизмов, пословиц и пословиц с английского на узбекский язык и факторы, влияющие на их значение с лингвистической точки зрения для понимания читателя. Мы классифицируем проблемы, возникающие во фразеологии, пословицах и пословицах в процессе перевода, и пути их решения на различных примерах. [1]

Ключевые слова: фразеологизмы, пословицы, пословицы, проблемы, возникающие в лингвистическом, переводческом процессе.

Kirish

Frazeologizmlar bu iboralar hisoblanadi. Iboralarni ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjima qilishda juda ham ko’plab muammolarga uchraymiz. Shuningdek, xalqimiz orasida asosan so’zlashuv uslubida keng qo’llaniladigan maqol va matallarda ham xuddi shunday muammolarni ko’rishimiz mumkin. Muammolarga yechim topish uchun bir nechta ibora, maqol, matallarni ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjimasi muammolarni ko’rib chiqamiz. [2]

Adabiyotlar tahlili va metadologiyasi

Frazeologiya tarkibida o’rganilayotgan maqol, matal, ibora hikmatli so’zlar alohida o’rganilishi lozim bo’lgan mavzulardir. Maqol so’zning ko’rki, nutqning o’tkir quroli, xalqning donishmandligidir. Maqol xalqning pand-nasixati, ma`naviy-axloqiy xulosasi,xalq milliy ruhining aks-sadosi, til tabiatining hikmatli merosidir. Maqol chuqur ijtimoiy, axloqiy, falsafiy –hikmatona mazmunga ega. Maqol xalq aql-idrokining maxsuli, uning xukmi ko’p asrlik tajribalari majmui, turmushdagi turli voqea-xodisalarga munosabatining ifodasidir. [3]

Natijalar

Maqol ishlatmagan birorta xalq yo’q.. Maqollar borki shirin pand nasihat qiladi, aql o’rgatadi. Mard va botir bo’lishga da`vat etadi. Maqol xalq orasida ota-bobolar so’zi sifatida avlodddan avlodga meros bo’lib o’tadi. Har bir maqol ham ma`no, ham shakl, ham stilistik funktsiya jihatidan o’ziga xos xususiyatga ega. Maqolda ko’pincha vatanni sevish, mehnat qilib yashash g’oyalari ilgari suriladi. [4]

Muhokama

Qisqasi maqol turmushda sinalgan, ma`lum ezgu tugal umumiy ma`no anglatuvchi ixcham bir shakldagi xalq hikmatidir. Uning boshqa frazeologik birliklardan farqi shuki, tarjima jaryonida boshqa frazeologik birlikka gap tarkibiga kirib, uning bir bo’lagini tashkil etsa, maqolning o’zi butun gapni tashkil qiladi. Misol qilib, kelin bir maqolni ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjima jaroyonini ko’rib chiqaylik.

Inglizcha: Measure twice and cut once.

O’zbekcha: Uch o’lchab bir kes.

Ma’lumki, maqolni so’zma-so’z tarjima qilganimizda “uch” o’lchab bir kes emas, uning muqobil variantini olgan holda “yetti” o’lchab bir kes deb tarjima qilinadi. Aks holda, maqolni tarjima qilishda so’zma-so’z tarjimadan foydalansak, tarjima jarayonida turli muammo va variant mutanosibliklariga uchrashimiz mumkin.

Ingliz tilida: Better to do well, than to say well

O’zbekcha: Yaxshi gapirishdan ko’ra yaxshi ishla

Yuqorida aytib o’tganimdek, atamani so’zma-so’z tarjima qilganimizda lingvistik nuqtai nazardan ham, stilistik, semantik, leksik nuqtai nazardan muammolarga uchrashimiz mumkin. Ushbu atamni so’zma-so’z tarjima qilganimizda, “yaxshi

gapirgandan ko'ra, yaxshi ish qilgan yaxshi” deb tarjima qilinadi. So’zma-so’z tarjima qilish jarayonida tarjima g’alizlik holatlari yuzaga keldi.

Inglizcha: Every dog is a lion at home

O’zbekcha: Qo’rqoq ham o’z uyida botir

Ushbu frazeologik iborani so’zma-so’z tarjima qilganimizda, “ hamma it ham uyida sher” deb tarjima qilinadi. Lekin so’zma-so’z tarjima qilganimizda tarjima jarayonida bir nechta muammolarga uchrayotganimizni ko’rib turibmiz. [5]

Xulosa: Tarjima jarayonida turli leksik, semantik, stilistik, grammatik, muammolarga uchramaslik uchun so’zma-so’z tarjima qilish emas, balki gapning konteksiga qarab yoki uning ma’nosidan kelib chiqqan holda tarjima qilish yoki muqobil variantini olgan holda tarjima qilish kerak. Shuning uchun ham tarjima jarayonida so’zma-so’z tarjima usulidan foydalanilmaydi, ma’nosidan kelib chiqqan holda asliyat tilidan o’zbek va boshqa tillarga tarjima qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.denemetr.com/docs/768/index-339368-1.html?page=3
2. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/suhbatlar/tarjima-nazariyasi-va-tanqidi-muammolari-davra-suhbati
3. https://inlibrary.uz/index.php/mlrfear/article/view/5863
4. https://cyberleninka.ru/article/n/tarjimada-uchraydigan-asosiy-xatolar
5. http://library.navoiy-uni.uz/files/tarjima%20nazariyasi-2012%20i.gafurov,%20n,qambarov.pdf